



KORRUPSIYA KELAJAK RIVOJINING ENG KATTA TUSIG'IDIR.

¹Bo'riyev Odil Qobilovich

¹O'zFA "Davlat va huquq" instituti mustaqil izlanuvchisi,
Termiz, O'zbekiston,
odilburiov@gmail.com,

²Hamroqulova Durdona Sherali Qizi

²Termiz Davlat Universiteti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7307525>

ARTICLE INFO

Received: 25th October 2022
Accepted: 07th November 2022
Online: 09th November 2022

KEY WORDS

Corrumpere", "buzmoq va pora bermoq", «Arxa-shastra», Misr fir'avnlari, «Financial Times» gazetasi, «korrupsiya yili», "Kolba" ta'lim markazida, Imom Buxoriy, Mus'ab ibn Umayr roziyallohu anhu, Termiziy, Ahmad va Nasaiylar.

Korrupsiya-lotincha "Corrumpere" so'zidan olingan bo'lib "buzmoq va pora bermoq" deb tarjima qilinadi. Yani mansabdor kishining moddiy yoki ma'naviy naf ko'rish maqsadida o'z xizmat mavqeyidan g'ayri qonuniy foydalanishi tushuniladi. Poraga masalan: pul, qimmat baho qog'ozlar, buyumlar, oziq-ovqat va ko'rsatilgan tibbiy xizmat yoki dam olish joylariga beriladigan yo'llanmalar ham kiradi. Korrupsiyaning tarixiy ildizlari, aftidan, biron kishida moyillik uyg'otish uchun sovg'a berish odatiga borib taqaladi. Qimmatbaho sovg'a odamni boshqa iltimoschilar orasida ajratib ko'rgan va uning iltimosi bajarilishiga xizmat qilgan. Shu sababli ibtidoiy jamiyatlarda kohin yoki qabila boshlig'iga to'lov odat bo'lib qolgan. Davlat apparatining murakkablashuvi va markaziy hukumatning kuchayishi bilan professional

ABSTRACT

Ushbu maqolaning mazmuni shundan iboratki bunda korrupsiyaning kelib chiqishi ibtidoiy davrlarda bo'lgan korrupsiya va hozirgi kunda bo'layotgan korrupsion jarayonlarni tanqid qilib ana shu korrupsion jarayonlarni bartaraf etishga qaratilgan usullar haqida batafsil ma'lumot berilgan.

amaldorlar paydo bo'lgan bo'lib, ular, hukmdorlarning fikriga ko'ra, faqat qat'iy belgilangan maosh bilan kifoyalanishi lozim bo'lgan. Amalda esa bu amaldorlar o'z mavqeidan daromadlarni yashirish oshirish maqsadida foydalanishga harakat qilganlar. U haqida korrupsiyaga qarshi kurashgan hukmdor sifatida xotira qolgan shaxs Uruiningina eramizdan avvalgi XXIV asrning ikkinchi yarmida Lagash shahar davlatining shumerlar podshosi hisoblanadi. Korrupsiya uchun boshqalarga namuna bo'ladigan va ko'pincha shafqatsiz jazolar qo'llanishiga qaramay, unga qarshi kurash kutilgan natijalarga olib kelmagan. Eng yaxshi holatda xavfli jinoyatlarning oldini olishga erishilgan, lekin mayda kamomad va poraxo'rlik darajasida korrupsiya ommaviy xarakterga ega bo'lgan. Korrupsiya muhokama qilingan



dastlabki asar «Artxa-shastra» eramizdan avvalgi IV asrda Bxarat (Hindiston) vazirlaridan biri tomonidan Kautilya tahallusi ostida chop etilgan. Unda muallif «podshohning mulki, hatto kichik miqdorda bo'lsa ham, bu mulkni idora qiladiganlar tomonidan o'zlashtirib olinishi mumkin emas», degan xulosa chiqargan. Xuddi shu kabi muammolarga Qadimgi Misr fir'avnlari ham duch kelgan bo'lib, bu yerda erkin dehqonlar, hunarmandlar va hatto harbiy a'yonlarga nisbatan ham o'zboshimchlik va zo'ravonlik ishlatgan hamda qonun buzarlilarni o'ziga kasb qilib olgan amaldorlar byurokratik apparati yuzaga kelgandi. Bizning kunlarga yetib kelgan Itaxotel degan shaxs o'z pand-nasihatlarida quyidagicha tavsiya beradi: «Boshliq oldida belingni bukib ta'zim qil, shunda sening uyingda tartib bo'ladi, sening maoshing joyida bo'ladi, kim boshliqqa qarshilik ko'rsatadign bo'lsa, uning hayoti oson kechmaydi, lekin u iltifot ko'rsatganda esa yashash ham oson bo'ladi».⁸ Sudyalar sotqinligi alohida tashvish uyg'otardi, chunki bu mulkning noqonuniy taqsimlanishiga va nizolarni huquq maydonidn tashqarida hal qilishga olib kelgn. Bejizga barcha dinlarda korruptsiya turlari orasida birinchi navbatda sudyalarni pora berib sotib olish qoralanmaydi: «...boshliq sovg'a talab qiladi, sudya pora evaziga sud qiladi, katta amaldorlar esa o'z xohishiga qarab bizlarni jazolaydi va ishlarni noto'g'ri talqin qiladi...»⁹; «Tuhfalar qabul qilma, chunki tuhfalar ko'zi ochiqlarni so'qir qilib qo'yadi va haq bo'lganlar ishini o'zgartirib yuboradi» (Chiqish. 23:8, q. shuningdek, Ikkinchi qonun. 16:19); «Bir-biringizning mulkingizni noqonuniy o'zlashtirib olmang va boshqa kishilar mulkning bir qismini

qasddan egallab olish niyatida hakamlarni pora berib sotib olmang» (Qur'oni karim, 2:188) va h.k. Qadimgi Rim qonunlarida «corrupterex atamasi «sudda ko'rsatmalarni pulga sotib olish» va «sudyani pora berib sotib olish m'nosida foydalanish boshlagan: «Nahotki sen sudda so'zlashda ishlarni tekshirish uchun tayinlangan va bu ish bo'yicha pora olgan sudya yoki vositachiini o'lim jazosi bilan jazolaydign qonunni shafqatsiz deb hisoblaysiz?»». 10 Nikkolo Makiavelli asarlari korruptsiyani anglab yetishga muhim turtki bergan. U korruptsiyani kasallik, masalan, sil kasalligi bilan tenglashtirgan. Agar kasal o'tqazib yuborilgan bo'lsa, uni aniqlash oson, lekin davolash juda qiyin. 11 XVIII asr oxirlaridan boshlab g'arb mamlakatlarida jamiyatning korruptsiyaga bo'lgan munosabatida tubburilish ro'y berdi. Liberal o'zgarishlar davlat hukumati uning qo'l ostidagi odamlar manfaatida: majud va shu sababli fuqarolar amaldorlarning qonunga so'zsiz rioya qilishlari evaziga hukumatni boqadi degan shior ostida o'tgan. Xususan, 1787 yil qabul qilingan AQSh Konstitutsiyasiga muvofiq, pora olish aytib o'tilgan ikki jinoyat turlaridan biri bo'lib. ular uchun AQSh Prezidentiga impichment e'lon qilinishi mumkin. Jamiyat davlat apparati ishi sifatiga tobora katta ta'sir ko'rsata boshlagan. Siyosiy partiyalar va davlat tomonidan tartibga solishning kuchayishi bilan yirik biznes va siyosiy partiyalar til birlashtirishi holatlarining o'sishi tashviy uyg'ota boshladi. Lekin shunga qaramay, XIX. XX asrlar davomida rivojlangan mamlakatlarda korruptsiya darajasi qolgan dunyo bilan taqqoslaganda ancha pasaydi. 12 13 XIX va XX asrlar bo'sag'asi rivojlangan mamlakatlarda korruptsiya



rivojlanishida yangi bosqich bo'ldi. Bir tomondan, davlat tomonidan tartibga solishning va mos ravishda, amaldor hukmronligining navbatdagi kuchayishi boshlandi. Boshqa tomondan-raqobat kurashida «davlatni pora berib sotib olish» - davlatning alohida mayda xizmatchilarini vaqti-vaqti bilan pora berib sotib olish emas, balki kapital manfaatlarini himoya qilish uchun yuqori mansabdagi amaldorlar va sisatchilar faoliyatini to'g'ridan-to'g'ri bo'ysundirishga murojaat qiladigan yirik xususiy biznes vujudga kela boshladi. Siyosiy partiyalar ahamiyatining o'sishi bilan rivojlangan mamlakatlarda (ayniqsa, G'arbiy Yevropa mamlakatlarida Ikkinchi jahon urushidan keyin) partiya korrupsiyasi rivojlanib, bunda o'z manfaatlarini himoya qilish va ilgari surish uchun yirik firmalar va transmilliy korporatsiyalar nafaqat shaxsan siyosatchilarga, balki partiya kassasiga ham pul to'lay boshladi. XX asrning ikkinchi yarmida korrupsiya yanada dolzarb xalqaro muammoga aylana boshladi. Korporatsiyalar tomonidan chet eldagi yuqori mansabdor shaxslarni pora berib sotib olish ommaviy xarakterga ega bo'ldi. Globallashuv shunga olib keldiki, bir mamlakatdagi korrupsiya ko'plab mamlakatlarning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsata boshladi. Bunda korrupsiya darajasi eng yuqori bo'lgan mamlakatlar uchinchi dunyo bilan chegaralanib qolmaydi: 1990-yillarda sobiq sotsialistik mamlakatlardagi erkinlashtirish o'taketgan mansab suiiste'mollari bilan birgalikda kuzatildi. 1995 yil 31 dekabr sonida «Financial Times» gazetasi 1995 yilni «korrupsiya yili» deb atadi. Korrupsiya haqida bilimlarni targ'ib qilish uchun BMT Korrupsiyaga qarshi kurash xalqaro kuni (9 dekabr) ta'sis qildi.

Bu ijtimoiy va iqtisodiy jarayon insoniyat tarixida ming yillar oldin ham mavjud bo'lgan davlatchilikning shakllanishi bilan paydo bo'lgan bu hodisa tabiiyki rivojlanish va o'sishga halaqit beradigan asosiy omillardan biriga aylangan Transparency International, Jahon Banki va boshqa tashkilotlar korrupsiya deganda ishonib topshirilgan hukmronlik qilishni shaxsiy manfaat yo'lida suiiste'mol qilishni tushunadilar. Shuningdek, aniqlik kiritadigan (hukumat ishonib topshirilgan resurslarni o'z ichiga olishi, u davlat va xususiy sektorga daxldor bo'lishi va h.k.) yoki yanada qattiqroq yuridik ifodalardan foydalanadigan boshqa ta'riflar ham mavjud. Rossiya qonunchiligiga muvofiq, korrupsiya bu xizmat mavqeini suiiste'mol qilish, pora berish, pora olish, vakolatlarini suiiste'mol qilish, tijorat asosida pora berib sotib olish yoki jismoniy shaxsning o'zi uchun yoki uchinchi shaxslar uchun pul, qimmatbaho narsalar, boshqa mulk yoki mulkiy xarakterdagi huquqlar yoki boshqa mulkiy huquqlarni qo'lga kiritish maqsadida davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlariga zid ravishda o'zining xizmat mavqidan noqonuniy foydalanishi yoki boshqa jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatilgan shaxsga bunday foydani noqonuniy ravishda taqdim etish; shuningdek, ko'rsatilgan harakatlarni yuridik shaxs nomidan yoki uning manfaatlarida bajarishdir. Qonunchilikda uchraydigan «korrupsion jinoyab tushunchasi alohida ta'rifga ega emas. Suiiste'mol korrupsiya shakllaridan biri (mansabdor shaxs yoki shaxslar guruhi jinoiy harakatlaridan biri) bo'lishi mumkin. lekin korrupsiya ta'rifining butun to'liqligi bu bilan tugamaydi. Rossiya Federatsiyasi tomonidan ratifikatsiya qilingan Yevropa



Korruptsiya haqida jinoyi-huquqiy konvensiyasi (ingl. Criminal Law Convention on Corruption) korruptsiyani yuridik va jismoniy shaxslarning qattiq jinoyatlari qatoriga kiritadi. 2010 yil holatida Rossiyada bitta korruptsion jinoyat uchun Ma'muriy huquqbuzarliklar haqida Kodeks bo'yicha ham, Jinoyat kodeksi bo'yicha ham jazo olish mumkin bo'lgan va bundan bilib olishimiz mumkinki korruptsiya azaldan ham mavjud bo'lgan. Rivojlangan davlatlarning tajribasidan kelib chiqib quyidagi yo'llar orqali korruptsiyaga qarshi kurashish mumkin: buyrokratiya yoki qog'ozbozlikni kamaytirish, korruptsiyaga qarshi kurashayotganlarni yoki xabar berayotganlarni moddiy rag'bandlantirish va shaxsini sir saqlashni kafolatlash jamiyatda sodir bo'layotgan jarayonlarning shafofligini va haqqoniyligini ta'minlash, fuqarolarning korruptsiyaga qarshi kurashishda faollikka jalb qilish kerak. Korruptsiyani birdan tuxtatib bolmasligini hammaga ma'lum shu korruptsiya sababli ulkan kashfiyotlar qolib ketyapti, korruptsiya sababli ta'lim sohasida qilinishi kerak bo'lgan ulkan o'zgarishlar ham qolib ketti. Korruptsiyani oldini olish juda qiyin lekin nimadir qilsa bo'ladi: asosiy o'rinda Ustozlar, ota-onalar o'zi o'mak bo'lib berishi kerak, yosh avlod o'sib o'lg'ayib xatosini tug'iraydi albatta masalan bitta misol: "Kolba" ta'lim markazida o'qigan bir shogird o'z ustozini yoniga kelib ustoz men o'z ishimni tashlayman ishlaymayman chunki men harbir ishni qilayotganimda mablag'ni taqsimlayotganimda korruptsiya menga pora taklif qilishayapti va mana shu ishni qilib bersang mana buncha pul uzinga buncha pul bizga deyishayapti nima qilay unga esa ustoz hech narssa qilmaysan

umumam mumkinmas deganda shogirdi aytdiki buldi ustoz men bu ishda ishlaymayman dedi aslida usha shogird universitetda bosh buxgalter lavozimida ishlardi chindan ham boyagi shogird ishini tashlab keldi va hozirgi kunda "Kolba" ta'lim markazida asosiy o'qituvchi lavozimida ishlayapdi. Afsuski bunday shaxslar jamiyatimizda kam uchraydi lekin hozirgi kunda davlatimiz rahbari bu sohada ya'ni korruptsiyani yuqotish uchun kuplab chora tadbirlar o'tkazishga harakat qilib kelmoqda va bu sohada kuplabi o'zgarishlar qildi masalan ta'lim sohasida ko'plab o'zgarishlarni amalga oshirib kelmoqda oxirgi besh yil ichida yurtimizda korruptsiya xolatlari anchagina kamaydi. Korruptsiya bilan kurashishga misol: Burayda roziyallohu anhu rivoyat qilgan hadisda Rasululloh sallallohu alayhi vasallam: "Qozilar (hukm qiluvchilar) uch toifadir. Bir toifasi jannatda, ikki toifasi do'zaxdadir. Haqiqatni bilib, adolat bilan hukm chiqargan qozi jannatda. Haqiqatni bila turib, pora olgani sababidan birovga zulm qilgan ikkinchisi va haqiqatni bilmay turib, hukm chiqargan qozilar do'zaxdadir". deganlar (Abu Dovud, Termiziy va Hokim). Anas roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: "Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam gunohi kabiralarni zikr qildilar: "Allohga shirk keltirish, ota-onaga oq bo'lish va odam o'ldirish", dedilar. So'ngra "Sizlarga katta gunohlarning kattasini aytaymi? Yolg'on guvohlik berishdir", dedilar (Buxoriy). Imom Buxoriy, Mus'ab ibn Umayr roziyallohu anhu, Termiziy, Ahmad va Nasaiylar shunday rivoyat qiladilar: "O'g'rilik qilgan mahzumiyalik bir ayolning holi qurayshliklarni tashvishga soldi. Ular: "U haqda Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga kim gapiradi?", deyishdi. Keyin: "U zotga Usoma - Rasululloh sollallohu



alayhi vasallamning mahbubidan boshqa kim ham jur'at qila olar edi?!", deyishdi. Bas. Usoma u Zotga bu haqda gapirdi. Shunda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam unga: "Allohning haddlaridan birida shifoatchilik qilasanmi?!" dedilar. 37 Korruptsiya 37 So'ngra turib, xutba qilib: "Ey odamlar! Albatta, sizdan oldin o'tganlarning halok bo'lishlari ichlarida shariflari o'g'rilik qilsa, qo'yib yuborib, zaiflari o'g'rilik qilsa. unga haddni qoim qilishlari sababidandir. Alloh nomi bilan qasamki, agar Fotima binti Muhammad o'g'rilik qilsa ham, albatta, uning qo'lini kesurman!", dedilar". Boshqa rivoyatda: "So'ngra haligi ayol haqida amr qildilar. Uning qo'li kesildi", deyilgan".

Xulosa:

Bundan shuni xulosa qilishimiz mumkinki agarda biz yoshlar ana shunday korrupsiya holatlarini oldini olishga yordam bersak qanchadan-qancha istedodli yoshlarni, kashf qilishimiz mumkinligini uylab kuringa va bundan tashqari yurtimiz rivoji

uchun ulkan hissa qushgan bo'lamiz keling yurtdoshlar yurtimizda korrupsiya deb ataluvchi kelajak rivojining eng katta tusig'ini yuq qilishga barchamiz qulimizdan kelgancha harakat qilaylik. DISKRYESION HOKIMIYAT (frantsuzcha discretionnaire - shaxsiy ixtiyorga bog'liq)-organ yoki mansabdor shaxsga qonun doirasida o': ixtiyoricha faoliyat ko'rsatish vakolatini berish. Mas.. parlamentar respublika davlat boshlig'i odatiy shart-sharoitlarda bosh vazir yoki tegishli vazir imzosisiz normativ hujjatlar chiqarish huquqiga ega emas, favqulodda holatlarda esa u bunday hujjatlarni d.h. ishtirokisiz chiqarishi mumkin. D.h.dan ayniqsa ma'muriy organlar va sudlar tez te: foydalanib turadi, bu amaliyotda shaxsning daxlsizligi, sudda aybi aniqlanmaguncha aybdor hisoblanmaslik kabi demokratik printsiplarni inkor qilishni anglatadi, belgilangan tartibning buzilishiga olib keladi.

References:

1. <http://www.gosbook.ru/node/81444> Rumyantseva Ye. Ye. Kakov v sovokupnosti i po yego chastyam uerb of korruptsii- kto predstavit obestvu samuyu vernuyu metodiku yego rascheta?//Ekspertnaya set po voprosam gosudarstvennogo upravleniya «Gosbuk»
2. Bardhan P. Corruption and development // Journal of Economic Literature. 1997. - Vol. 25. P. 1320. [1] (angl.) Tanzi, V. Corruption, Governmental Activities and Markets // IMF Working Paper 94/99, International Monetary Fund, Washington, DC.-1994.
3. The Anti-Corruption Plain Language Guide
4. Chinhamo O., Shumba G Institutional working definition of corruption // ACT Southern Africa Working Paper. 2007. No.
5. Federalnoty zakon Rossiyskoy Federatsii ot 25 dekabrya 2008 g. N 273-FZ O protivodeystvii korruptsii»



6. Xrestomatiya gosudarstva i prava zarubejnux stran. Drevnost i Srednie veka/sost. V. A. Tomsinov.-M.: Zertsalo. 1999; 2004.-S. 56.
7. Bibliya. Vetxiy Zavet.- M., 1994.-S. 352, 10 Tablisa IX. 3. Avl. Gelly / Zakonu XII tablits. Xrestomatiya po istorii gosudarstva i prava zarubejnax stran / pod red. V. A. Tomsinova.-M.: Zertsalo, 1999. S. 120. 11 Makiavelli N. Izbrannoe.- M., 1989.-S. 78-79, 12 Bardhan P. Corruption and development: a review of issues.- In: Political corruption: concepts and contexts/ Ed. Heidenheimer A. J., Johnston M. 3rd ed. New Brunswick, NJ: Transaction, 2002. -ISBN 978-0-7658-0761-8-P. 331. 13 Glaeser E. L., Goldin C. Corruption and reform: an introduction (angl.) // NBER Working Paper 10775. 2004.